

JADID MA'RIFATPARVARLIGIDA TOLERANTLIK MASALALARI

Mamirov Azizjon Niyazmuxamedovich

Aziz_m@list.ru

ALFRAGANUS university

Katta o'qituvchi, Falsafa doktori (Phd)

Annotasiya. Ushbu maqolada hozirgi globallashuv jarayonida tolerantlik tushunchasining G'arb davlatlari tarixi va hozirgi kunda tutgan o'rni va roli yoritib berilgan. G'arb jamiyati ongida tolerant dunyoqarashni shakllantirish bilan bir qatorda tolerantlik tushunchasi mohiyatini o'z nuqtai nazarlaridan yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: bag'rikenglik, jadidchilik, yoshlar, ma'rifatparvarlik, g'oya, jamiyat, ijtimoiy, tenglik.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritishi mamlakat tarixida eng ulkan tarixiy voqea bo'ldi. Asrlar davomida ota- bobolarimiz tomonidan intilib, kurashib, qon to'kilishlar natijasida orzu qilib kelingan niyat amalga oshdi. «Avvalgi yakkahokimlik tuzumining illatlari qat'iy tugatilmoqda. Ko'p partiyaviylik g'oyalari va fikrlarning xilma-xilligiga toqat qilish real voqelikka aylanmoqda. Yagona mafkuraning yakkahokimligiga barham berildi. Umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi, chinakam demokratiya, inson erkinliklari va huquqlarining butun dunyo tan olgan marom va qoidalari tobora ko'proq qaror topmoqda»[1]. Bugungi kunda O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar negizida o'z hayotini garovga qo'yib, istiqloq uchun jon fido qilgan, jadid nomi bilan tanilgan ota- bobolarimizning juda katta mehnatini ko'rishimiz mumkin. Jadidchilikning asosiy g'oyaviy harakati Turkiston o'lkasida mustaqillik va ma'naviy yuksalish, mamlakatdagi barcha din vakillari va millat-elatlarni teng ko'rgan holda jahon sivilizatsiyasi erishgan muvaffaqiyatlardan xalqni bahramand etish, inson va jamiyat erki va kamoloti orqali jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan edi. «Jadid» so'zi

arabcha soʻzdan olingan boʻlib, «yangi», «yangilik tarafdorlari» degan maʼnoga ega boʻlib, bu harakat Turkistonda XIX oxiri va XX asr boshlarida Chor Rossiyasining yurtimizga boʻlgan mustamlakachilik siyosatining kuchayishi oqibatida paydo boʻldi. Umuman olganda, bu davrda jadidchilik oqimi Turkiya, Kavkaz, Misr, Turkiston va boshqa oʻlkalarda oʻz gʻoyalarini ilgari surgan siyosiy oqim sifatida yuzaga keldi. Jadidlar oʻz davrining ziyoli shaxslari sifatida xalq ichida yangilik, maʼrifat va madaniyatni targʻib qilishni, ilmini oshirishni asosiy maqsad qilgan edilar. Turkistonlik jadidlar ona-Vatanni mustaqil, ozod holda koʻrishni bosh maqsad deb, milliy ozodlik kurashida qurol bilan emas, balki xalqqa maʼrifiy bilim berish, yoshlarning maʼnaviyatini oshirish orqali kurashni afzal, deb bilganlar. Qolaversa, jadid namoyondalari milliy maʼrifatparvarlik, millatparvarlik, milliy ozodlikka qaratilgan gʻoyalarini ilk qadamlaridan tortib, soʻnggi daqiqalargacha bayroq qilishdi, uni muntazam ravishda hayotga tatbiq qilishga harakat qilishdi. Shuni alohida taʼkidlash zarurki, Turkistondagi maʼrifatchilik Oʻrta va yaqin Sharqdagi, Qrim, Qozon, Ufa va Ozarbayjondagi qardoshlari Said Ahmadxon, Jaloliddin Afgʻoniy, Bitrus Bustoniy, Jurjiy Zaydon, Muhammad Abdu, Abdurahmon Kavokibiy, Javod Husaynzoda, Imom Rizouddin ibn Faxriddin, Shayx Musa Jorulloh, Gaspirali Ismoilbek va boshqalar nomi bilan bogʻliq diniy islohchilik, maʼrifatchilik harakatlari, jarayonlari bilan oʻzaro taʼsirda chuqur sifatli oʻzgarishlarga duch kelayotgan edi. Oqibatda, chor Rossiyasining oʻzida ezilgan xalqlarning uyushishi, birlashishi va ozodlik uchun kurashish gʻoyasi asosida maʼrifatchilik mafkurasi shaklidagi jadidchilik vujudga keldi. Q.Nazarov yozishicha: «Hayotda roʻy berayotgan turli ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlarni oʻrganish, milliy falsafa va xalq dunyoqarashini jahon taraqqiyoti talablari nuqtai nazaridan tahlil qilish borasida Mahmudxoʻja Behbudiy, Muhammad Sharif Soʻfizoda, Saidrasul Aziziy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Choʻlpon, Fitrat kabi vatanparvarlar katta yutuqlarga erishdilar»[2]. Maʼrifatparvarlik harakati namoyondalaridan Mahmudxoʻja Behbudiy oʻz davri ijtimoiy-siyosiy hayotining yirik namoyondalaridan hisoblanadi. Uning tashabbusi va say-harakatlari bilan 1903 yil Samarqand atrofida Halvoyi, Rajabamin

qishloqlarida yangi rus maktablari tashkil topdi. Behbudiy bu maktablarda yoshlar ta'lim olishi va savodini chiqarishi uchun 1904-1909 yillarda «Risolai asbobi Savod», «Risolai jug'rofiya umroniy», «Risolai jug'rofiya rusiy», «Kitobat al-atfol», «Amaliyoti islom», «Muxtasar tarixi islom» kabi darslik va o'quv qo'llanmalari yozib, maktabga tadbiq qiladi. Behbudiy yoshlarda ma'rifatni o'stirish uchun faqatgina maorif sohasida ijod qilmasdan, dramaturgiya va matbuot sohasini ham yo'lga qo'ydi. Uning «Padarkush» (1913) asari Behbudiy dramasiining ilk asari hisoblanadi. Bu asar orqali adib yoshlarning tarbiyasiga bo'lgan befarqlik naqadar katta fojiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatib bergan. Shu bilan birga, u xalqning dunyoqarashi, milliy ongini yuksaltirishda matbuotning o'rni naqadar katta ekanligini tushungan holda 1913 yildan boshlab, shu soha bilan shug'ullana boshlaydi. U «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnalini nashr etishda shaxsan o'zi bosh-qosh bo'ladi, keyinroq «Nashriyoti Bexbudiya» deb nomlangan o'z xususiy nashriyotini ochadi. «Oyna» jurnali xalq orasida milliy madaniyatni o'stirish va ma'rifat tarqatishda xizmati juda katta bo'ldi. Unda millat va uning haq-huquqlari, ma'naviyati, tarixi, tili va adabiyot, dunyoda kechayotgan jarayonlar haqida qiziqarli maqolalar orqali turli xil bahslar berib borildi. Bu harakatlar negizida xalqning ko'zini ochish, ongini rivojlantirish kabi maqsad yotar edi. Behbudiy faoliyatida ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchi o'rinda turar edi. Alloma yoshlar dunyoviy fanlarni o'zlashtirib olishini, tenglik va bag'rikenglik g'oyalarini rivojlantirish orqali boshqa millit vakillari bilan o'zaro aloqalarni yahshilash mumkinligini ta'kidlagan. «Biz turkistonliklarga, – deb yozadi Behbudiy, ikki sinf kishilari lozimdurki va bu ikki sinf kishilarisiz bizni diniy va dunyoviy ishlarimiz, millat va qavmiyatimiz, maishiy ehtiyojimiz xarob bo'lib, kundan-kun begona millatlarning zabuni va mahkumi bo'lurmiz»[3]. Behbudiy millat va mamlakat ozodligini faqat ma'rifatparvarlikni rivojlantirish orqali erishish mumkinligiga qattiq ishongan. Istiqlolga erishish yo'lida har qanday zo'ravonlikni rad etgan. Zo'ravonlik insoniyatni jarlikka olib boradigan, g'ayriaxloqiy va g'ayriinsoniy illatdir, deya fikr bildirgan. Behbudiyning jadid ma'rifatchiligi doirasida publitsistika muhim o'rin tutadi. Dastlab u Toshkent, Farg'ona

va Xivada faoliyat ko'rsatgan ma'rifatchi adiblar kabi «Turkiston viloyatining gazetasi» dan foydalandi. SH.Azizov., S.Azizova yozishicha: «Uning dolzarb muammolarga bag'ishlangan maqolanavisligi ko'lami keng bo'ldi. O'z hayoti davrida dunyoning uch qit'asi tutashgan mamlakatlar orqali ikki marta haj ziyoratiga borgan, Rossiya markazlarida safarlarda ko'rgan kechirganlari va umumlashmalari publistitsiskasi uchun katta manba hisoblangan»[4]. Ma'rifatparvarlik g'oyalari bag'rikenglik va tenglik tamoyillarini qo'llashda Bexbudiyning aynan mana shu g'oyalari katta rol o'ynadi. Uning ma'naviy merosi nafaqat o'sha davr yoshlariga, balki hozirgi davr yosh avlodiga ham katta saboq va dars bo'lib kelmoqda. Ma'rifatparvar olim, shoir, dramaturg, jurnalist, davlat arbobi va jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy ijodi o'sha davr ma'rifatparvrlk sohasida alohida o'rin tutadi. U yangicha usulda yangicha maktab ochishda faol ishtirok etdi. Maktab ta'limi uchun darsliklar yozdi. Maktab-maorif ishlariga yordam beruvchi «Jamiyati xayriya» ochib, yetim va boquvchisi yo'q, sharoiti og'ir bolalarni o'qitishni yo'lga qo'ydi. Taniqli ma'rifatparvarlar bilan keng miqyosda hamkorlik qilib, «Nashriyot», «Maktab» shirkatlarini tuzishda katta hissa qo'shdi. «Xurshid», «Tujjor», «Osiyo» kabi gazetalarning chiqarilishida bevosita o'zi ishtirok etdi. O'z muharrirligi ostida «Shuhrat», keyinchalik «Turon» gazetalarini bosib chiqardi. A.Avloniy asos solgan maktab gumanistik va bag'rikenglik g'oyalar va erkin tarbiyaga asoslangan bo'lib, bolalarga dunyoviy ilm fanni o'rgatishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Asosiy maqsad xalqni birlashtirgan holda yoshlarni kamolotga yetkazish bo'ldi. Adib jadidchilik maktabi uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» kabi darsliklar tuzdi. A.Avloniy inson xulqi va odobi, insondagi barcha fazilatlarni «go'zallik» tushunchasi atrofida jamlaydi. Uning fikricha barcha ezgu fazilatlar insonda go'zallikni ifodalaydi. Har bir insondagi asl go'zallikni ilmu ma'rifatda, tadbirkorlik qilib, halol yo'l bilan boylik orttirishda, deb izohlaydi. Uning nazdida ilm va mol dunyo o'z xalqiga xizmat qilish uchun zarur. Alloma boshqa millat va mamlakat vakillari o'z yurtida ilm orqali boylik orttirgani, boy insonlar mablag'ini ilm yo'lida sarflayotganini ta'kidlab, shunday deydi: «Amerikaliklar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy olurlar.

Yevropaliklar o'zimizdan olg'on besh tiyinlik paxtani keltirib, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar dumba sotib, sandor chaynaymiz. Qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz! So'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmoq uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tunganmas say, bitmas g'ayrat lozimdur»[5]. A.Avloniy inson axloqining qanchalik yuksakligini shu insonning millat ma'naviyatiga qo'shgan xissasiga qarab belgilaydi. Ilmsizlik va madaniyatning pastligi, yosh avlodning o'tmishini bilmasligi va ajdodlarimizdan qolgan merosga befarqligini ko'rib, iztirobga tushadi. U millat dardini, iztirobini, muammolarini o'ylamaydigan, xalqni birlik va tengligi yo'lida harakat qilmaydigan insonlarni ko'rib, ularni yomon fe'l va yomon odatli odamlar sifatida baholaydi. Abdulla Avloniyning millatlar o'rtasida bag'rikenglik masalasida qilgan ishlarini professor B. Qosimov quyidagicha ta'riflaydi: «Abdulla Avloniy tatar, ozarbayjon, usmonli qardoshlari bilan yaqindan aloqa bog'ladi. Ulardan ko'p narsa o'rgandi, o'rgatdi. Bu o'zaro hamkorlik ijodi va faoliyatida yorqin izlar qoldirdi. Shoir mashhur ozarbayjon kuychisi Muhammad Hodidan ilhom olib, unga naziralar bitdi»[6]. Adibning bu harakatlari mazmun-mohiyatida millatlararo birlik, bag'rikenglik, millatparvarlik g'oyalariga amal qilgan holda hayot kechirish, mamlakatning gullab-yashnashiga ilm-ma'rifat va ma'naviyat rivojlanishiga olib kelishini yoshlar ongiga singdirish edi. Tahlilimizcha, uning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari axloqiy didaktik mazmundagi o'zbek ma'rifatchiligining noyob asarlar sirasiga kiradi. Bu asarda yoshlarga oid tarbiya masalasi, axloqiy muammolar, davr talab-ehtiyojidan kelib chiqqan holda tahlil qilingan. U inson xulqlarini yaxshi, yomon va an'anaviyga ajratgan holda, o'z fikr mulohazalarini Aristotel, Platon, Sa'diy Sheroziy, Bedil fikrlariga suyanib aytib o'tadi, ularni o'sha davrning asosiy mezonini qilib oladi. Asarda tenglik, matonat, ilm, sabr, adolat, muhabbat kabi tushunchalar «yaxshi xulqlar» sifatida talqin qilinadi. Asarda «Yomon xulqlar» deganda, g'azab, jaholat, razolat, adovat, g'iybat, hasad, boshqa millat va elat vakillariga past nazar bilan qarash kabi xislatlarni keltirib, ularni talqin qiladi. Shuningdek, sharqona tarbiyaning o'ziga xosligi, «tenglik», «bag'rikenglik»

tushunchalarining o'zbek millati qoniga singib ketganligi, ta'lim tarbiya negizini tashkil qilishi asosiy talablar bilan ta'riflab berilgan. Afsuski 30-yillarda boshlangan siyosiy jarayonlar natijasida bu kitob taqiqlab qo'yildi. Abdulla Avloniyning boy merosi zalolatga yuz tutdi. Uning asarlarini kutubxonalardan ham topish qiyin bo'lib qoldi. Faqat respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng bu asarni chop etish, Uning merosini o'rganishga katta e'tibor berildi. Xulosa o'rnida yoshlarning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishda ularni kasbiy yo'naltirish juda muhim ekanligini jadid namoyondalari o'z asarlarida yoritib o'tishgan. Zero, ular jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda, rivojlanishi va mustaqillikka erishishda tenglik, birdamlik tushunchalarini shakllantirish qanchalik muhim ekanligini anglab etishgan. Bugungi kunda jadid ma'rifatparvarlari qoldirgan me'ros yoshlarimiz uchun amaliy dastur bo'lib hizmat qilmoqda. Vazifamiz bu me'rosni asrab-avaylab kelajak avlodga etkazishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Uzbekistanning ўz istiqlol va tarakkiyot yo'li. – T.: Uzbekiston, 1992. – B. 4-5.
2. Nazarov K. Ozbek Falsafasi. – Tashkent: Uzbekiston faylasuflari milliy zhamiyati nashriyoti, 2003. – B.155-156.
3. Makhmudkh'yzha Behbudiy. Ehtiozhi millat. – Concilium Uzbekistanium: 1990. – B. 18 .
4. Azizov Sh., Azizova S. Marifatparvarlik — izhtimoiy-madaniy hodisa. - Tashkent: "Abu matbuot - konsalt." 2008. – B. LXXIII.
5. Kosimov B. Abdulla Avloniy. – Tashkent: Toshkent, Tongi, 1979. – B. 268.
6. Kosimov B. Milliy uyg'onish. – Tashkent: Manaviyat. – B. 202.
7. Ziyoda, K. (2023). FALSAFA TARIXIDA HAQIQAT MUAMMOSINING TURLI TALQINLARI. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 1(1), 351-356.
8. Абдуазимова, З.А. (2021). Философские особенности концептуального подхода в формировании экологической этики в условиях глобализации. Международный журнал по интегрированному образованию , 4 (10), 138-142.

9. Amirovna, Z. A. (2022). Theoretical and Practical Aspects of Environmental Ethics of their Manifestation in Society.
10. Abdurasulovich, D. G. O. (2023). The Question of Moral Selection in French Ecclesialism. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(8), 42-44.
11. Zhuraev, A. M. (2019). SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN IS INEXTRICABLY LINKED WITH THE PRINCIPLE OF PEACEKEEPING. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(7), 146-150.
12. jamoliddin Abduraximovich, M. (2023, November). ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHDA GEOGRAFIK MUHITNING O 'RNI. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 11, pp. 158-166)*.
13. Abduraximovich, M. J. (2022). YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING TASNIFI. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (4 (19)).
14. Kurbanov, C. M., Shaniyazov, S. S., Nurfayziev, J. B., & Sherboboev, M. A. U. (2020). GEOPOLITICAL AND ECONOMIC INTERESTS OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE SECOND HALF OF THE 19th CENTURY IN CENTRAL ASIA. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8521-8546.
15. Sherboboev, M. A. O. (2021). CRITICAL RATIONALISM AS A METHODOLOGICAL MEANS OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE. *Academic research in educational sciences*, 2(8), 89-97.
16. Azimmurod o'g'li, S. M. (2023). KARL POPPERNING ILMIY BILISH MANTIG 'I VA YANGI O 'ZBEKISTONDA IJTIMOY BILISHNING O 'ZIGA XOSLIGI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 447-453.
17. Muhammadievich, J. A. (2020). Process of the transformation of peacefulness into moral need of spiritual ascension. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(6), 4396-4401.
18. Mamanov, J. A. (2023). YOSHLAR MADANIYATI TUSHUNCHASI VA UNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(13), 383-390.